

TA'LIM JARAYONIGA IJODIY YONDASHUVDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING O'RNI

p.f.f.d(PhD) Irisbaeva Manzura Nurmamatovna

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, Samarqand filiali
«Raqamli ta'lif texnologiyalari» kafedrasи o'qituvchisi

Аннотация:

педагогик технология қўйилган таълимий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш имконини берадиган, таълим ва тарбияни назарий жиҳатдан асосланган шакл, метод ва усулларини олдиндан лойиҳалаштирилган таълим жараёни, педагогик технологияда асосий муаммо таълимнинг ташкилий шакллари, метод ва усулларидан аниқ мақсадга йўналтирилганларини танлаш ва самарадорлигини ошириш.

Hozirgi davrda ta'lif islohotlarining asosiy maqsadi bilimli va malakali kadrlar tayyorlash ekan, bu borada ta'lif sifatini yuqori pog'onaga ko'tarish uchun diqqat-e'tiborni ta'lifning ilmiy-metodik jihatdan samaradorligini oshirishga qaratish zarurligi asosiy vazifalardan etib belgilandi

Xalqimizning boy ma'naviy salohiyati hamda umuminsoniy qadriyatlar, hozirgi zamon madaniyati, fan-texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga tayangan holda yangicha ta'lif tizimini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda amal qilinayotgan me'yoriy hujjatlarda e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etishni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishning yuqori pog'onasiga ko'tarishda xalqimiz oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi mamlakatimizning jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnni egallashida muhim ahamiyatga ega. Bu ulkan vazifalarning bajarilishida mamlakatimiz rivojlanishining poydevori bo'lgan yosh avlodga har tomonlama chuqur va puxta bilim berish natijasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash nazarda tutiladi.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'liddagi jiddiy o'zgarishlar, jahon pedagogikasi yutuqlari, o'qitishning tarixiy-milliy texnologiyalari, bu borada sharq mutafakkirlarining boy ilmiy-ma'rifiy merosi (Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ulug'bek va boshqalar), inson va ta'lif-tarbiya haqidagi fikrlari milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiyalashda qo'l keladi.



Ma'lumki, o'qituvchilar ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan hikoya, suhbat, ma'ruza, muammoli mashqlar, mehnat topshiriqlari, ishbop o'yinlar, bahsmunozaralar, kitob bilan mustaqil ishslash, axborot texnologiyalaridan foydalanish, dasturlashtirilgan ta'lim, og'zaki savol-javob, yozma ishlar, ijodiy topshiriqlar, mustaqil nazorat ishlari olib boradilar. Lekin hozirgi davrda faqat bilimli shaxslar emas, balki ma'naviy, barkamol shaxsni shakllantirish talab etiladi. Buning uchun ta'lim jarayonida o'quvchining fikrini uyg'otish, o'quv jarayoniga faol qatnashishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bu faollikni dars davomida ta'minlash, o'quv faoliyatini ma'lum maqsad sari yo'naltirib, uning aqliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish, mustaqil mulohaza yuritish, munosabat bildirishga, xulosalar chiqarishga yo'llash integrallashgan metodlarning asosini tashkil etishi lozim.

Masalan, Hozirda «Tarbiya» o'quv fani tarkibiga kiritilgan «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fanidan «Do'stlik va o'rtoqlik. Kamtarlik, kibru-havo va manmanlik» mavzusidagi dars mashg'uloti quyidagi reja asosida o'rganildi:

1. Do'stlik va o'rtoqlik nima?
2. Do'stlik qoidalari.
3. Yaxshi do'st – ulkan boylik. Do'st qadrini bilish.
4. Dushmandan saqlanish. Hushyor va ogoh bo'lish.
5. Millatlar va mamlakatlar o'rtasidagi do'stlikning jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni.
6. Kamtarlik deganda nimani tushunamiz?
7. Kibr-havo va manmanlikning oqibatlari.

Yuqoridagi masalalarni o'rganishda «Siz do'st deganda qanday insonni tushunasiz?», «Sizning do'stingiz bormi?», «Uni nima uchun hurmat qilasiz?», «Dushman deganda qanday kishini tushunasiz?», «Nima uchun doimo hushyor va ogoh bo'lishimiz lozim?» degan savollar bilan murojaat qilindi. O'quvchilar bilan bo'lgan suhbat ularga mavzu materialini yetkazishda nimalarga rioya qilishni ko'rsatdi. Suhbatdan so'ng o'quvchilarga do'stlikning asl mohiyatini tushuntirish, do'stlik tuyg'usining shakllanib borishi, haqiqiy va soxta do'stni ajrata olish, do'st tanlash talablari, uning ma'naviy-axloqiy mezonlari, kamtarlik – inson uchun eng yuksak fazilat ekanligi, mutafakkirlarning do'st-dushmanni ajratish, kamtarlik haqidagi dono fikrlari, hozirgi davrda dushman va nobakorlardan ogoh bo'lish, elatlar va xalqlar o'rtasida hamjihatlikni saqlashning zaruriyati haqida tushuncha berish lozimligi ma'lum bo'ldi.

Mavzu darslik materiallari asosida tushuntirilgandan so'ng o'quvchilarga darslikdan mavzu matnini diqqat bilan o'qish topshiriladi. Matnni o'qish davomida do'st tutish



qoidalari, do'stga vafo, donishmandlarning do'stlikni asrash va dushmanidan ehtiyoj bo'lish haqidagi fikrlariga e'tibor berishlari ta'kidlandi. O'quvchilar matnni o'qib bo'lganlaridan so'ng o'qituvchi rolli o'yinlardan «Baynalminal» klubini tashkil etishni topshiradi, sinfda o'quvchilar soni 25 nafarni tashkil etadi. Topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar 5 guruhga bo'linadilar. Har bir guruh «Baynalminal» klubini tashkil etish bo'yicha dasturga o'z takliflarini kiritadilar. Guruhlar klubning asosiy yo'nalishlarini belgilaydilar.

I. yo'nalish – hamkorlik.

II. yo'nalish – totuvlik.

III. yo'nalish – ogohlik.

IV. yo'nalish – madaniyat.

V. yo'nalish – san'at.

O'qituvchi liderlar fikrini umumlashtirib va to'ldirib, ularning barcha fikrlarini «Do'stlik» nomi bilan umumiylashtiradi.

Mashg'ulotning ikkinchi yarmida kamtarlik, kibr--havo va manmanlik haqida o'qituvchi quyidagi ma'lumotlarni berdi:

- Kamtarlik insonning o'z atrofidagilarga va o'z-o'ziga nisbatan munosabatda ortiqcha izzat-ikrom, alohida ehtirom talab qilmaydigan axloqiy xislat. Kamtar inson o'zgalarni hurmat qiladi, izzattalab bo'lmaydi, muvaffaqiyatlaridan kibr-havoga berilmaydi, maqtanchoqlik qilmaydi. Xalqimiz hamisha kamtarlikni ulug'lab kelgan. «Kamtarga kamol – manmanga zavol» degan ibora ham bekorga aytilmagan. Kibr-havo, dimog'dorlik esa kamtarlikning aksi bo'lib, insonni o'ziga, o'z qobiliyatiga ortiqcha bino qo'yishi natijasida namoyon bo'ladigan illatdir. Buning asosida o'zgalarni mensimaslik, ularga past nazar bilan qarash illati yotadi. Kibru havo, manmanlikka berilgan inson o'z yutuqlarini boshqalarga bo'rttirib ko'rsatadi, atrofdagilarga mensimay munosabatda bo'ladi.

Kibr-havo, manmanlik Qur'oni Karim va Hadisi Sharifda ham qattiq qoralanadi.

Manmanlik gohida o'z aqliy va jismoniy quvvatida ishga ortiqcha qodirlilikni namoyish etishga xizmat qiladi. Biroq, mavjud aqliy va jismoniy quvvatdan ortiq me'yorda ishlashga, harakat qilishga intilish zo'riqishga olib keladi. Me'yordan ortiq zo'riqish yurak qon-tomir, asab kasalliklarini keltirib chiqaradi. Bundan ma'lumki, manmanlik nafaqat kishi obro'sini tushiradi, balki fiziologik kasalliklarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi.

Mavzuga doir asosiy masalalar yuqoridaqidek o'rganilganidan so'ng savol va topshiriqlar asosida o'quvchilar bilimi umumlashtirildi. Uyda ularga buyuk



mutafakkirlarning do'stlik haqidagi hikmatlari, dushmanidan saqlanish, kibr-havo, manmanlik haqidagi fikrlarini yozib kelish topshirildi.

Ma'lumki, milliy ta'lim tizimida komil insonni tarbiyalashda ma'naviy yetuklik asosiy maqsad bo'lgan. Bilimlarni o'zlashtirish, ijodkorlik ma'naviy kamolot sari intilish orqali amalga oshirilgan. Bu inson ruhiyatiga ta'sir orqali amalga oshirilgan. Hozirgi davrda milliy ta'lim ham ana shu an'ana o'laroq ta'limning milliy xususiyatlari, o'ziga xosligini hisobga oladi. Bu ayniqsa maktabda ijod mahsuli bo'lgan insholarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham insholar orqali o'quvchilarining bilimi, ko'nikma va malakalari aynan ularning his-tuyg'ulari, kechinmalari orqali ifodalananadi.

Ular insholarda o'z munosabati, intilishlari, fikrlari, ezgu tuyg'ularini ifodalaydilar. Milliy ta'limdagi o'quvchini ijodga yo'llaydigan bu metod ularni o'z mustaqil fikrini bayon etishi, voqeа-hodisalarga munosabat bildirishi, haqiqiy ijod mahsuli bo'lishi zarur.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 24 январдаги Республика байналмилал маданият маркази ташкил этилганинг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи. //– Халқ сўзи, 2017 йил 25 январь. – №18. – 1, 2, 3, 4 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суюнчимиздир.// Халқ сўзи, 2017 йил 1 июль. – № 129. – 1, 2, 3, 4 б.
- 3.Педагогик технология ва педагогик маҳорат. // Барча мутахассислик магистратура йўналиши учун ўкув қўлланма - Т.; ТДПУ, 2003. – 174 б.
4. Алиқулов X. Этические воззрения мыслителей Средней Азии и Хорасана (XVI-XV вв.)// Под ред. Академика АН Уз М. М. Хайруллаева. – Т.: Фан, 1992. – 98 с.

